



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILITSIYA IDORALARINING HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISH VA MIGRATSIYA VA FUQAROLIK ISHLARIDAGI FAOLIYATI

Ro'ziboyev Faxriddin

University of Business and Science, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillikdan keyingi yillarda yurtimizda ichki ishlar organlari tizimida ro'y bergan o'zgarishlar pirovardida ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning vazifalarining asosiy prinsiplarining ishlab chiqilishi, huquqbuzarlikning oldini olish borasida amalga oshiradigan vazifalarining amalga oshirishda psixologik bilimlarga ega bo'lishlari zarurligi, har bir huquqni muxofaza qilish organi xodimi huquqni muxofaza qilish ishlarida qonuniyligni ta'minlash zarurligi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, fuqarolik holatlarini belgilash va nazorat qilish, fuqarolarning chet elga chiqishi yoki kelishini nazorat qilish, huquqni muxofaza qilish maqsad va vazifalari haqida, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonun hujjatlarining ahamiyati va roli haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bunda xodimlarning huquqiy savodxonligi yuqori bo'lishligi alohida ustuvor vazifa ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: militsiya, huquqbuzarlik, jinoyat, tartibot, nazorat, migratsiya, fuqarolik.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ МИЛИЦИИ ПО ПРОФИЛАКТИКЕ ПРАВОНАРУШЕНИЙ И В СФЕРЕ МИГРАЦИИ И ГРАЖДАНСТВА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Рузибоев Фахриддин

University of Business and Science, преподаватель

Аннотация

В данной статье представлена информация об изменениях, произошедших в системе органов внутренних дел нашей страны в годы независимости, и о разработке на их основе ключевых принципов служебных обязанностей сотрудников. Рассматривается необходимость владения психологическими знаниями при выполнении задач по профилактике правонарушений, а также обязательность обеспечения законности каждым сотрудником в сфере охраны правопорядка. Кроме того, приводятся сведения о регистрации и контроле актов гражданского состояния, надзоре за выездом и въездом граждан, целях и задачах правоохранительной деятельности, а также о роли и значении нормативно-правовых актов, координирующих данную сферу. Особое внимание уделяется тому, что повышение правовой грамотности сотрудников является приоритетной задачей.

Ключевые слова: милиция, правонарушение, преступление, правопорядок, контроль, миграция, гражданство.

THE ACTIVITIES OF POLICE DEPARTMENTS IN CRIME PREVENTION, MIGRATION, AND CITIZENSHIP AFFAIRS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Roziboyev Faxriddin

University of Business and Science, Lecturer

Abstract

This article provides information on the changes that occurred within the internal affairs bodies of our country during the post-independence years, specifically the development of core

principles for the duties of personnel operating in this system. It emphasizes the necessity for law enforcement officers to possess psychological knowledge in performing crime prevention tasks and the vital importance of ensuring the rule of law in their professional activities. Furthermore, the article covers the regulation and monitoring of civil status, oversight of citizens' departure to and arrival from foreign countries, and the goals and objectives of law enforcement. It highlights the significance and role of legislative acts coordinating their activities, underscoring that the high legal literacy of personnel is a top priority.

Keywords: Police, offense, crime, public order, oversight, migration, citizenship.

Mustaqillikdan keyin barcha davlat organlari kabi ichki ishlar organlari faoliyati ham tubdan isloh qilindi. Uning faoliyati rostdan ham xalq manfaatlari bilan bog'landi. Militsiya faoliyatini jazolash funksiyasidan ko'ra xalq xizmatiga yo'naltirishga alohida ahamiyat qaratildi. Shuningdek, militsiya idoralariga kadrlarni ishga qabul qilishda ularning malakasi va bilimiga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlarini amalga oshirishda militsiya xodimlarining mahalla xodimlari bilan hamkorlikda ishlashi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, ularning fuqarolik masalalaridagi vakolatlari ham kengaytirildi.

Ushbu yillarda O'zbekiston ichki ishlar organlarining huquqiy maqomi shakllanib, muayyan darajada mustahkamlandi. Biroq ichki ishlar organlari tizimi jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olish borasidagi faoliyatini ma'lum vaqt davomida sobiq tuzumdan qolgan tartib va usullar asosida olib bordi.

Ma'muriy hududlarda sobiq Ittifoqdan meros bo'lib qolgan uchastka punktlari mazmuniga ko'ra faqat uchastka inspektorlarining xizmat xonalaridan iborat edi, xolos [1; b-11]. Hukumat qarorlari esa hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning amaldagi tizimi zamon talablariga javob bermasligini ko'rsatib berdi [2].

Mustaqillik yillarida ichki ishlar tizimiga oid qator qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularning eng muhimlaridan biri — 2017-yil 16-sentabrda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun bo'lib, u ichki ishlar organlarining vazifalari, huquqlari va faoliyat yo'nalishlarini aniq belgilab berdi, xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirdi hamda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish tamoyillarini asos qilib oldi [3].

Mustaqillik yillarida birgina Toshkent shahrining o'zida 1200 ga yaqin profilaktika inspektorlarining faoliyati yo'lga qo'yildi [4].

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri — ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlash xizmatidir. Ushbu xizmat xodimlari o'z kasbiy vazifalarini O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni, Jinoyat va Jinoyat-ijroiya kodekslari hamda Ichki ishlar vazirligining tegishli yo'riqnomalari asosida amalga oshiradilar.

Mazkur faoliyat jarayonida nafaqat yuridik bilimlar, balki shaxsning ichki ruhiy holati, hissiy kechinmalari va individual fazilatlarini bilish uchun psixologik bilimlar ham zarur hisoblanadi. Shu bois har bir jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimidan psixologiya fanining asoslarini chuqur o'rganish talab etiladi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagicha ta'kidlagan edi:
"Psixologiya fani biz uchun eng zarur sohalaridan biridir. Psixologiyani o'rganish — hayotni, insonni o'rganish demakdir. Agar rahbar bo'lishni istasangiz, avvalo odamlarning psixologiyasini har tomonlama bilishingiz kerak" [5; b-122].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).
Mavzuga oid adabiyotlar ikki guruhga bo'linadi:

1. tizim faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar;

2. tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari ham mavzuni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida ushbu soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar rivojlandi. Jumladan, M. Ziyodullayev, R. Dushanov, S. Asyamov, Y. Po'latov, I. Ismoilovlar o'z ilmiy ishlarida ichki ishlar organlaridagi islohotlarni tahlil qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, amaldagi qonunlar, hukumat qarorlari, Ichki ishlar vazirligining buyruq va ko'rsatmalari hamda zamonaviy psixologiya fanining nazariy va amaliy yondashuvlari tashkil etadi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, taqqoslash va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati faoliyati psixologiyasi yuridik psixologiya fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. U jazoni ijro etish jarayonida shaxsning ruhiy holati, ijtimoiylashuvi va xulq-atvorini o'rganadi.

Mazkur fan quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- xodimlarning psixologik xususiyatlari;
- jazoni o'tayotgan shaxslarning ruhiy holati;
- shaxs va jamoa psixologiyasi;
- ijtimoiy-psixologik jarayonlar.

Shuningdek, ushbu yo'nalishning asosiy maqsadi — jazoga hukm qilingan shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatish, ularning xulq-atvorini tartibga solish va ularni ijtimoiy moslashtirishdan iborat.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda profilaktika organlari faoliyati tubdan yangilanib, ularning asosiy e'tibori jazolashdan ko'ra jinoyatchilikning oldini olishga qaratildi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida huquqbuzarliklarning erta profilaktikasi, aholi bilan yaqin hamkorlik va jamoatchilik nazorati sezilarli darajada kuchaydi. "Xavfsiz mahalla" va "Xavfsiz shahar" kabi konsepsiyalar asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'ldi. Eng muhimi, tizim faoliyatida inson manfaatlari ustuvor yo'nalishga aylandi. Xulosa qilib aytganda, amalga oshirilgan islohotlar profilaktika tizimini zamonaviy va samarali institutga aylantirdi hamda huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim natijalarga erishilishiga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ziyodullayev M.Z. ilitsiya tayanch punktlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini boshqarishni takomillashtirish: yurid. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 55 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasi to'g'risida"gi 170/40-sonli qarori (12.04.1999).
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2016 yil 26 sentyabr. – № 38. – 438-modda.
4. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 221 b.
5. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T. 14. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 280 b.
6. Dushanov R.X., Sirliyev B.N., Kalonov I.X. Huquqbuzarliklarni oldini olish xizmati faoliyati psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 155 b.
7. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002. – 346 b.
8. Asyamov S.V., Pulatov Yu.S. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy-psixologik treningi. – Toshkent, 2002. – 127 b.
9. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. – Toshkent, 2000. – 204 b.